

## **“INNOVATSION FAOL VA INNOVATSION FAOL BO‘LMAGAN YOSHLAR” TUSHUNCHASI TAHLILI**

Abduvaliyev Ortiq Abdulhamidovich  
JDPU erkin tadqiqotchisi

“Innovatsion faol” yoshlar qatlamiga quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lgan yoshlar kiradi:

- 1) innovatsion o‘zgarishlarni aniq idrok etgan;
- 2) innovatsion jarayonlarga o‘z hissasini qo‘shayotgan;
- 3) jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy innovatsion rivojlanishi, innovatsion dasturlar qabul qilish, uni hayotga tadbqiq etishda befarq bo‘lmagan;
- 4) jamiyatda olib borilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda innovatsion tashabbuskorlik bilan ishtirok etayotgan;
- 5) muayyan ilmiy, texnologik va innovatsion birlashmalar va tashkilotlar bilan o‘z faoliyatini bog‘lagan, shunga ehtiyoj sezgan;
- 6) jamiyatda ijtimoiy muammolarni hal etish, ijtimoiy zararli illatlarni bartaraf etishda o‘z innovatsion faolliklarini namoyon etayotgan.

“Innovatsion faol bo‘lmagan” yoshlar qatlamlariga quyidagi xislatga ega bo‘lgan yoshlar kiradi:

- 1) boqimandalik va o‘zibo‘larchilik kayfiyatlariga ega bo‘lgan;
- 2) jamiyat rivojlanishi, uning taqdiri va jahoniy taraqqiyoti bilan qiziqmaydigan;
- 3) ilmiy va texnologik bilimlarga ega bo‘lmagan, xorijiy tillarni o‘zlashtirmagan;
- 4) oliy o‘quv yurtlarini bitirmagan, bitirsa ham nomiga o‘qigan
- 5) o‘z hududida ijtimoiy dasturlarni amalga oshirilishida faollik bilan ishtirok etmayotgan.

Innovatsion faol bo‘lmagan yoshlarning asosiy belgilari:

o‘zgarishlarga qarshilik (yangi g‘oyalar, texnologiyalar yoki yondashuvlarni qabul qilishda ikkilanishlari yoki istamasligi, tanishlik va an'analarni afzal ko‘rishlari);

qiziqish va izlanishning yetishmasligi (yangi tushunchalar, tajribalar yoki imkoniyatlarni o‘rganishga qiziqish yo‘qqligi yoki cheklangan qiziqish, mavjud bilimlar bilan qoniqish, yangi ma'lumotlarni izlamaslik);

an'anaviy yechimlarga tayanish (innovatsion faol bo‘lmagan yoshlar muqobil yoki ijodiy yondashuvlarni izlashga unchalik moyil bo‘lmagan holda muammolarning an'anaviy va o‘rnatilgan yechimlariga tayanadi, ularga innovatsion yechimlarni o‘rganishdan ko‘ra sinab ko‘rilgan va sinovdan o‘tgan usullar bilan qulayroq);

kam tavakkal qilish xulq-atvori (tavakkal qilishni istamasligi, noaniqlik yoki potentsial muvaffaqiyatsizlik bilan bog‘liq vaziyatlardan qochib, o‘zlarining qulaylik zonalarida qolishni afzal ko‘rishlari va bu ularning innovatsion g‘oyalar yoki tashabbuslarni o‘rganishga tayyorligiga to‘sqinlik qilishi mumkin);

cheklangan muammolarni hal qilish ko'nikmalari (innovasion faol bo'lmagan yoshlar muammoni hal qilish qobiliyatlari bilan kurashishlari mumkin, ular tanqidiy fikrlash, ijodiy g'oyalar yaratish va muqobil yechimlarni aniqlashda qiyinchilik tug'diradi. Ular hal qilish uchun boshqalarga ishonishga yoki muammolarni hal qilishning innovasion usullarini faol izlamasdan qabul qilishga ko'proq moyil bo'ladi);

tadbirkorlik tafakkurining yo'qligi ( bunday yoshlar imkoniyatlarni aniqlash va undan foydalanish, tashabbus ko'rsatish va innovasion loyihalar yoki tashabbuslarni amalga oshirishda faol bo'lish istagi bilan ajralib turadigan tadbirkorlik nuqtai nazarini namoyish etmaydi, ularda yangi g'oyalarni yaratish va amalga oshirish uchun harakat va motivasiya yetishmaydi);

texnologiya va tendensiyalarga befarqlik (texnologik taraqqiyotga va rivojlanayotgan tendensiyalarga befarq yoki ishtiyoq yo'q); hamkorlikka qarshilik (innovasion faol bo'lmagan yoshlar boshqalar bilan hamkorlik qilish, fikr almashish yoki jamoada ishlashga kamroq moyil bo'ladi, yakka holda ishlashni afzal ko'rishlari va hamkorlik, bilim almashish imkoniyatlarini faol ravishda izlamaydi).

O'zbekistonda jamiyat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotida yoshlarning tutgan o'rni, yoshlar faolligi va ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga oid keng qamrovli tadqiqotlar ijtimoiy-siyosiy fanlar tarkibida S.Jo'raev, Q.Quronboev, E.Bobomurodov, L.Tangriev, Z.Qodirova, R.Turdiboeva, N.Hasanov kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Jumladan, S.Jo'raev O'zbekiston Respublikasining o'tish davrida shakllanadigan yoshlar siyosatining o'ziga xos xususiyatlari nazariya va amaliyoti haqida to'xtalib o'tgan. E.Bobomurodov jamiyatni ma'naviy rivojlantirishda yoshlarning ruhiyatini o'zgartirish muammolarini tahlil etgan. L.Tangriev yoshlar - siyosat sub'ekti masalasiga to'xtalib, bunda yoshlarning siyosiy jarayonlarda ishtiroki, ularning siyosiy hayotdagi o'rni va roli, yoshlarning saylovlar jarayonlaridagi ishtiroki, jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi faoliyati, yoshlarning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki kabi masalalarni o'rgangan. Z.Qodirova O'zbekistonda jamiyatni islox qilishda yoshlarning ijtimoiy faolligi muammolarini ilgari suradi. R.Turdiboev jamiyatni modernizatsiya qilish va yangilash sharoitida yoshlarning huquqiy madaniyatini yanada oshirish muammolari va yechimlarini aniqlagan <sup>1</sup>.

Yoshlar har bir jamiyatda faol ijtimoiy qatlam hisoblanadi. Jahon mamlakatlarida yoshlar qatlami va ularning yosh tarkibiga nisbatan turli xil yondashuvlar mavjud. Xususan, xalqaro YUNESKO tashkiloti 17 yoshdan 25 yoshgacha bo'lganlarni yoshlar qatlamiga kiritadi.

<sup>1</sup> Жўраев С. Ўзбекистон Республикасининг ўтиш даврида шаклланадиган ёшлар сиёсатининг ўзига хос хусусиялари: назария ва амалиёт. с.ф.д.и.д.олиш учун тайёрланган дисс.-Т.:1994. Тангриев Р. Ёшлар- сиёсат субъекти. с.ф.н.и.д.олиш учун тайёрланган дисс.-Т.: 2001. ҚодироваЗ. Проблемы повышения социальной активности молодежи Узбекистана в условиях всестороннего реформирования общества. автореферат. дисс. д.п. наук. -Т.:1999. Турдибоев Р. Жамиятни модернизация қилиш ва янгилаш шароитида ёшларнинг ҳуқуқий маданиятини янада ошириш муаммолари. с.ф.н.и.д.олиш учун тайёрланган дисс. -Т.:2008.



Yevropa Ittifoqi davlatlarida esa, 16 yoshdan 30 yoshgacha (ba'zan 35 yoshgacha) bo'lgan aholi vakillari yoshlar qatlami sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, MDHning aksariyat mamlakatlarida 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lganlar yoshlar hisoblanadi, ammo Ukraina davlatida 14-35<sup>2</sup>, Qozog'iston davlatida da14-29<sup>3</sup> yoshlilar ushbu toifaga kiritiladi<sup>4</sup>. O'zbekiston Respublikasida esa 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lganlar<sup>5</sup> yoshlar hisoblanadi. Yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va islohotlarning olib borilishida innovatsion asosdagi ishtiroki, ularning innovatsion faolligini bugungi kun nuqtai nazaridan keng qamrovli tahlil qilish, uni jamiyatning har tomonlama taraqqiyoti bilan bog'liq jarayonlarda o'ziga xos o'ringa ega ekanligini hamda mamlakatda rivojlanish tendentsiyalarini ro'yobga chiqarish chora-tadbirlarida asosiy vazifalardan birini bajarishi bo'yicha tegishli xulosalarni berish muhim ahamiyatga ega masala hisoblanadi.

<sup>2</sup> Закон Украины "О содействии социальному становлению и развитию молодежи в Украине" 1993 г.

<sup>3</sup> Закон Республики Казахстан «О государственной молодежной политике в Республике Казахстан» от 7 июля 2004 года №581.

<sup>4</sup>

<sup>5</sup> Ўзбекистон Республикасининг "Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатининг асослари тўғрисида" ги Қонуни. 20 ноябрь, 1991 й. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши Ахборотномаси. 1992 й. 2-сон.